

## «MasterCard va OFB dan millionlar» promo-aksiyasi qoidalari

### 1.Umumiy qoidalar

- 1.1. Ushbu qoidalar «MasterCard va OFB dan millionlar» promo-aksiyasining o’tkazilish tartibi, shartlari, joyi va muddatini belgilaydi.
- 1.2. **Tashkilotchilar:** «Orient Finans» XATB MasterCard kompaniyasi ko’magi bilan.
- 1.3. **Aksiya o’tkaziladigan hudud.** Aksiya O’zbekiston Respublikasi hududida «Orient Finans» XATB tizimida o’tkaziladi.
- 1.4. **Aksiya o’tkazilish muddati.** Aksiya 2021 yil 1 maydan 2021 yil 31 avgustgacha, 31 avgust ham kiradi, o’tkaziladi.

### 2. Aksiya ishtirokchilari

- 2.1. Aksiyada 18 yoshga to’lgan O’zbekiston Respublikasi fuqarolari, «ORIENT FINANS» XATB xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari, shuningdek ushbu aksiyani reklama qiluvchi shaxslardan tashqari, qolgan shaxlar ishtirok etishlari mumkin.
- 2.2. Aksiyada ishtirok etish aksiya ishtirokchilarining ushbu Qoidalarga to’liq roziliklarini nazarda tutadi.
- 2.3. Aksiya ishtirokchisi tomonidan ushbu Qoidalarga rioxaga qilinmaganda, ishtirokchi keyinchalik aksiyada ishtirok etish va sovrin olish huquqini yo’qotadi. Sovrirlarni olish uchun aksiya ishtirokchilari, aksiya o’tkazilishi muddati davomida sovrinlar olinganligini tasdiqlovchi hujjatlarni imzolash paytiga qadar ulardan talab qilingan barcha talablarni ushbu Qoidalarga muvofiq ravishda bajarishlari shart.

### 3. Aksiyada ishtirok etish shartlari

- 3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun aksiya boshlangunga qadar yoki aksiya o’tkazilish vaqtida «ORIENT FINANS» XATB tomonidan chiqarilgan MasterCard karta egasi bo’lishi kerak. MasterCard karta egasi har qanday miqdorgagi summaga tranzaksiyani amalga oshirishi kerak, shundan so’ng u avtomatik ravishda ushbu aksiya ishtirokchisiga aylanadi.

3.2. Tranzaksiya – bu Karta egasining hisobi bo’yicha bir kalendar oy davomida tovar va xizmatlar uchun, shu jumladan Internet tarmoqlarida to’lov amalga oshirilganligini aks ettiruvchi xarajatlar operatsiyasi (bankomat yoki kassa orqali kartadan naqd pullarni yechish, shuningdek konversion operatsiyalar tranzaksiya hisoblanmaydi). Aksiyada ishtirok etuvchi tranzaksiya summasi Bank komissiyasini hisobga olmagan holda hisoblanadi.

3.3. Bank xizmatlaridan foydalanuvchilar, mijozlarni ushbu aksiyaga jalb qilinishini oshirish maqsadida “MasterCard Standart Universal” plastik kartasini bepul ochirish yoki “MasterCard Standart Milliy” kartasini 10 AQSh dollari miqdoridagi kamaymaydigan qoldiq summasini bir martalik to’ldirish sharti biblan ochish imkoniyati quyidagi shartlar asosida taqdim etiladi:

- Bank filiali (minibank, bank xizmatlari ofisida) miqdori kamida 50 AQSh dollari bo’lgan pul o’tkazmalarini jo’natish/qabul qilish bo’yicha bir martalik operatsiyalarini amalga oshirish
- chakana operatsiyalar/valyuta almashtirish operatsiyalari kassalarida miqdori kamida

50 AQSh dollari bo'lgan bir martalik xarid qilish yoki sotish operatsiyalarini amalga oshirish.

Ushbu karta egasi ham ushbu qoidalarning 3.1-bandida ko'zda tutilgan tranzaksiyalarni amalga oshirishda aktsiya ishtirokchisiga aylanadi.

3.4. Agar mijoz aksiya o'tkazilishi davomida 3.3-bandda ko'rsatilgan operatsiyalarini takroran amalga oshirsa, yangi kartaning ochilishiga ruxsat berilmaydi.

#### **4. Sovrin jamg'armasi**

4.1. Asosiy sovrin:

1) Turkiyaga sayohat uchun ikki kishilik yo'llanma va xalqaro virtual MasterCard Virtual UZS plastik kartasiga o'tkazish yo'li bilan miqdori 30 000 000 so'm bo'lgan pul mukofoti

4.2. Asosiy yirik sovrinlar:

1) Xalqaro virtual MasterCard Virtual UZS plastik kartasiga o'tkazish yo'li bilan miqdori 30 000 000 bo'lgan pul mukofotlari (3 ta).

3) Xalqaro virtual MasterCard Virtual UZS plastik kartasiga o'tkazish yo'li bilan miqdori 1 000 000 so'm bo'lgan oraliq pul mukofotlari (120 ta).

4.3. Ushbu aksiya bo'yicha sovrin (mukofotlar) olinishi munosabati bilan yuzaga kelgan davlat byudjetiga to'lanadigan barcha tegishli soliq va majburiy to'lovlarini to'lash Soliq kodeksi va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Aksiya g'olibini tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

G'oliblar mukofot summasiga biron-bir tovarni sotib olib, mukofotni almashtirishni talab qilish yoki mukofotning pul qiymatini talab qilish, mukofotni qo'shimcha to'lovni amalga oshirish yoki qiymatdagagi farqni qaytarish sharti bilan boshqa yuqori yoki past qiymatga almashtirishga haqli emaslar.

#### **5. Promo-aksiyalar o'tkazilishi va sovrinlar o'ynalish jarayoni tartibi**

5.1. Sovrinlar o'ynalishi **2021 yilning 4 oyi** davomida Bank komissiya a'zolari ishtirokida o'tkaziladi. Komissiya tarkibi Bank Boshqaruvi bayonnomasi bilan tasdiqlanadi.

5.2. Ushbu Qoidalarga muvofiq 2021 yilning 1 mayidan 2021 yilning 31 avgustigacha tranzaksiyalarni amalga oshirgan karta egalari asosiy sovrin o'ynalishining ishtirokchilari hisoblanadilar. Asosiy sovrin o'ynalishi 15.09.2021 yilgacha amalga oshiriladi.

5.3. Oraliq asosiy pul mukofotlari ishtirokchilari quyidagi tranzaksiyalarni amalga oshirgan MasterCard karta egalari hisoblanadilar:

1) Oraliq asosiy pul mukofoti 01.05.2021 yildan – 31.05.2021 yilgacha. O'yin 15.06.2021 yilgacha bo'ladi, 1 g'olib,

2) Oraliq asosiy pul mukofoti 01.06.2021 yildan – 30.06.2021 yilgacha. O'yin 15.07.2021 yilgacha bo'ladi, 1 g'olib,

3) Oraliq asosiy pul mukofoti 01.07.2021 yildan – 31.07.2021 yilgacha. O'yin 15.07.2021 yilgacha bo'ladi, 1 g'olib.

5.4. Oraliq o'yin ishtirokchilari quyidagi tranzaksiyalarni amalga oshirgan MasterCard karta egalari hisoblanadilar:

- 1)Oraliq o'yin 01.05.2021 yildan – 15.05.2021 yilgacha. O'yin 25.05.2021 yilgacha bo'ladi,
- 2) Oraliq o'yin 15.05.2021 yildan – 31.05.2021 yilgacha. O'yin 15.06.2021 yilgacha bo'ladi,
- 3) Oraliq o'yin 01.06.2021 yildan – 15.06.2021 yilgacha. O'yin 25.06.2021 yilgacha bo'ladi,
- 4) Oraliq o'yin 15.06.2021 yildan – 30.06.2021 yilgacha. O'yin 15.07.2021 yilgacha bo'ladi,
- 5) Oraliq o'yin 01.07.2021 yildan – 15.07.2021 yilgacha. O'yin 25.07.2021 yilgacha bo'ladi,
- 6) Oraliq o'yin 15.07.2021 yildan – 31.07.2021 yilgacha. O'yin 15.08.2021 yilgacha bo'ladi,
- 7) Oraliq o'yin 01.08.2021 yildan – 15.08.2021 yilgacha. O'yin 25.08.2021 yilgacha bo'ladi,

8) Oraliq o'yin 15.08.2021 yildan – 31.08.2021 yilgacha. O'yin 15.09.2021 yilgacha bo'ladi,

5.5. Mazkur aksiya uchun oraliqdagi o'yinlarda g'oliblari soni 15 karta egalari, va o'yin g'oliblari maxsus Random dastur yoki shunga o'xhash dasturlar bilan belgilanadi

5.6. 3 30,000,000 so'mdan 3 karra miqdordagi asosiy pul mukofotlarini o'yini har oyning oxirida, reklama ishga tushgandan keyin 15-kunga qadar o'tkaziladi va va o'yin g'olibi maxsus Random dastur yoki qur'a g'olibi tasodifiy raqamlarni taqdim etuvchi maxsus tasodifiy dastur yoki shunga o'xhash dasturlar bilan aniqlanadi

5.7. Bosh sovrin qur'asi 15.09.2021 gacha amalga oshiriladi va qur'a g'olibi tasodifiy sonlarni ta'minlovchi maxsus tasodifiy dastur yoki shunga o'xhash dasturlar bilan aniqlanadi

5.8. Bank reklama ishtirokchilari bilan yozma muzokalariga yoki boshqa aloqalarga kirishmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, rag'batlantirish chog'ida nizolar kelib chiqqan hollar bundan mustasno;

5.9. Targ'ibotda ishtirok etish fakti ishtirokchilarning nomlari, familiyalari, fotosuratlari va ular haqidagi boshqa materiallardan tashkilotchi tomonidan reklama maqsadlarida, ularga haq to'lamasdan foydalanish mumkinligiga rozilik berishini anglatadi;

5.10. Bank o'z xohishiga ko'ra www.ofb.uz veb-saytga o'zgarishlar haqida oldindan bunday o'zgarishlar kuchga kirishidan 3 (uch) ish kuni oldin e'lon joylashtirib, ushbu qoidalarga bironbir o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Bank sovrinlar ro'yxati va miqdorini o'zgartirish yoki kengaytirish huquqiga ega. Bank ishtirokchining aksiyada ishtirok etishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar, xarajatlar va boshqa xarajatlarni qoplamaydi va o'rnni to'ldirmaydi;

5.11. Mukofot g'olibining sog'lig'iga (hayotiga), shuningdek, mukofotning butun faoliyati davomida uchinchi shaxslarning mol-mulkiga, sog'lig'iga yoki hayotiga yetkazilgan zarar uchun bank hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi;

5.12. Ushbu aksiya davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar bank va ishtirokchi o'rtasidagi muzokalarlar orqali ixtiyoriy va o'zaro tushunish asosida hal qilinadi. Rozilik bo'limgan taqdirda nizo sud muhokamasi orqali hal etiladi;

5.13. Bank, Radmon maxsus dasturi yoki shunga o'xhash tasodifiy raqamlar bilan ta'minlash maxsus dasturlar yordamida, keyingi g'olib (asosiy g'olibni) belgilaydi asosiy, oraliq mukofot belgilaydi, bundan tashqari, asosiy g'olib sovrinni rad taqdirda va/yoki bu qoida bilan nazarda tutilgan muddatda sovrinni qabul qilmasa, qo'shimcha zaxira nomzodlar sifatida 2 karta egalarini tanlaydi..

5.14. Agar asosiy g'olib sovrindan voz kechsa va / yoki sovrinni o'z vaqtida olmasa, sovrin tasodifiy sonlarni ta'minlovchi Radmon maxsus tasodifiy dastur yoki shunga o'xhash dasturlarda birinchi bo'lib aniqlangan zahira nomzodiga topshiriladi. Agar birinchi zaxira nomzodi sovrindan voz kechsa yoki sovrinni o'z vaqtida olmasa, sovrin ikkinchi zaxira nomzodiga topshiriladi.

5.15. Agar Bosh g‘olib va 2 nafar zaxiradagi nomzodlar sovrinni rad etib,/yoki mukofotni o‘z vaqtida olmagan bo‘lsalar, g‘oliblarni muqobil aniqlash mazkur Qoidalarning 5.12-5.13-bandlarida nazarda tutilgan tartibda komissiya qarori bilan alternativ tartibda amalga oshiriladi.

5.16. Agar, g‘oliblarni alternativa tartibda aniqlash natijalariga ko‘ra, mukofotdan voz kechish va/yoki sovrinni o‘z vaqtida olmaslik natijasida mukofot olinmasa, tashkilotchi mukofotni haqiqatda ushbu qoidada nazarda tutilgan tartibda g‘olibga topshirilgunga qadar yana o‘ynalishi uchun saqlab qoladi.

Aksiya natijalariga ko‘ra sovrinni rasmiylashtirish/g‘oliblarni aniqlash tartibi, komissiya bayonnomasi tuziladi va komissiya a’zolari tomonidan imzolanadi.

5.17. G‘oliblar nomi / nomlari bankning rasmiy korporativ veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilinadi.

5.18. Bank rag‘batlantiruvchi mukofot g‘olibiga SMS-xabarnoma yuboradi yoki ishtirokchi tomonidan ko‘rsatilgan telefon raqamiga murojaat qiladi.

5.19.Tashkilotchi ishtirokchi tomonidan reklama shartlariga rioya qilmaslik oqibatlari uchun javobgar emas.

## 6. Sovrirlarni olish tartibi va muddatlari

6.1. Sovrnilar Toshkent sh. Osiyo ko‘chasi, 5-uyda joylashgan “ORIENT FINANS” XAKBda yoki Bankning boshqa bo‘limi/filialida beriladi. Bunda g‘olib paspotning aslini taqdim etishi va sovrinni olish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni imzolashi zarur.

6.2. Sovrinlar O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq soliq va boshqa majburiy to‘lovlar amalga oshirilgandan keyin G‘olib shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (pastort, harbiylar uchun harbiy bilet) taqdim etgandan so‘ng undagi barcha ma'lumotlar mos kelgan taqdirda topshiriladi.

6.3. Sovrinni olish uchun Aksiya G‘olibi quyidagilarni taqdim etishi lozim:

- a. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportining asli, harbiylar uchun harbiy bilet;
- b. G‘olibning STIRi;
- c. O‘zbekistoon Respublikasi Soliq qodeksining 387-moddasiga asosan soliq va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatla.

6.3.1. Mazkur Qoidaning 4-bandida qayd etilgan pul qiymatidagi sovrirlar O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq 387-moddasida zikr etilgan tartibda to‘lov manbasidan ushlab qolish yo‘li bilan soliqqa tortiladi.

6.4. G‘olib O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq barcha soliq va majburiy to‘lovlarini amalga oshirgan holda Bank tomonidan yutuq haqida xabardor qilingan

sanadan e'tiboran 15 (o'n besh) kalendar ish kunida Sovrinni qabul qilish olish majburiyatini oladi.

6.5. G'olibni yutuq haqida xabardor qilish chog'ida Bank yutuqni qabul qilib olish mudati va aytilgan muddat davomida yutuq qabul qilinmasligi oqibatlari to'g'risida ma'lum qiladi. G'olib Bank belgilagan muddatda yutuqni uzrli sabablarga ko'ra qabul qilib ololmagan taqdirda G'olib yutuqni qabul qilib olishning eng so'nggi muddatini ma'lum qilishi kerak, bunda mazkur muddat yutuq haqidagi xabar sanadan boshlab 20 (yigirma) kalendar kunidan ortmasligi lozim.

6.6. Yutuq (shu jumladan, qo'shimcha va asosiy yutuq)ni taqdim etish G'olib va Bank vakolatli vakili imzolagan qabul qilib olish-topshirish Dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

6.7. Toshkilotchining yutuqni ishtirokchiga topshirish yuzasidan majburiyati yutuq ishtirokchiga topshirilib, qabul qilib olish-topshirish Dalolatnomasi imzolangandan so'ng yakunlangan hisoblanadi.

6.8. Yutuq topshirilgandan e'tiboran yutuqqa nisbatan egalik qilish huquqi yutuq egasiga o'tadi.

6.9. Yutuqlarni qabul qilib olish bilan bog'liq barcha boshqa to'lovlar, shu jumladan boj to'lovi, soliqlar va byudjetga majburiy to'lovlar hamda boshqa harajatlar Ishtirokchilar tomonidan amalga oshiriladi.

6.10. Yutuqlarni taqdim etish marosimi tantanali tarzda jamoatchilik vakillari ishtirokida ommaviy axborot vositalarini jalb qilgan holda tashkil etilishi mumkin.

6.11. Yutuqlardan foydalanishda uning soxibi salomatligiga (hayotiga), uchinchi shaxslarning mulki, salomatligi yoki hayotiga yetkazilishi mumkin bo'lgan ziyon uchun Tashkilotchi javobgar bo'lmaydi.

7. Aksiya ishtirokchilarini aksiyani o'tkazish shartlari, uni to'xtatib turish yoki muddatidan oldin yakunlash yuzasidan xabardor qilish tartibi

7.1. Promo-aksiya Ishtirokchilari uni o'tkazish shartlari va tartiblari to'g'risida shaharning supermarketlari, restoranlari va qahvaxonalaridagi monitorlarda video roliklar namoyish etish, internetdagи ijtimoiy tarmoqlarda ochilgan Bankning sahifalarida post (axborot bloklari) joylashtirish orqali amalga oshiriladi.

7.2. Mazkur promo-aksiya to'g'risidagi bat afsil ma'lumot hamda aksiya Qoidalari Bankning [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz) korporativ veb-saytida joylashtiriladi.

7.3. Promo-aksiya to'g'risidagi bat afsil ma'lumotni Bankning quyidagi uzlusiz telefon aloqasi orqali olish mumkin: (+998 71) 200-88-99.

7.4. Aksiyani o'tkazish muddatidan oldin yakunlangan, muddatlari uzaytirilgan yoki Qoidalarga o'zgartirish kiritilgan taqdirda, bu to'g'risidagi tegishli ma'lumot Bankning [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz) saytida joylashtiriladi.

